Advances in Science and Humanities



Advances in Science and Humanities, 2026, 51–55

doi: 10.70728/human.v02.i06.012
Volume 02, Issue 06
ISSN: 3060-5393
Paper

PAPER

EPIK ASARLAR TAHLILIDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Munisa Toshtemirova[1,*]

[1]Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi 2-bosqich magistranti

* toshtemirova647@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada epik asarlarni tahlil qilish jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida adabiyot darslarida taqdimotlar, videomateriallar, interaktiv platformalar va elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarning asarni chuqurroq anglashiga yordam berishi kuzatildi. Muallif epik asar qahramonlari, syujet rivoji va badiiy g'oyani tahlil qilishda zamonaviy vositalar samarali ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va darsga qiziqishini oshirishi qayd etiladi. Maqolada o'qituvchi uchun amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Key words: epik asar, raqamli ta'lim texnologiyalari, multimedia vositalari, adabiyot darsi, interaktiv ta'lim, syujet tahlili, badiiy tahlil, AKT, elektron resurslar, o'quvchi faolligi.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston adabiyoti va sanati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar tufayli mumtoz mavzudagi asarlarni yangi nazariy va amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilish zarurati tug'ildi. Zamonaviy jamiyatda mumtoz asarlarning roli va ahamiyati yangicha yondashuvlar asosida o'rganlishi kerak. Chunki so'nggi yillarda, ayniqsa, yoshlar o'rtasida an'anaviy yoki mumtoz adabiyotga qiziqish kamayib, zamonaviy media va boshqa madaniy platformalar orqali yangi shakllar va janrlar ommalashmoqda. Bunday sharoitda mumtoz asarlarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tahlil qilish, uni ijtimoiy, ma'naviy va estetik tushunish yoshlar uchun muhimdir. Mumtoz adabiyotning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati shundaki, u nafaqat xalqning o'ziga xos merosni saqlab qolish, balki uning yangi avlodlar tomonidan

Compiled on: April 2, 2026.
Copyright:©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

qadrlanishi va tushunilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Mumtoz asarlar, ayniqsa, yoshlarni axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqni birlashtirish va milliy g‘ururni oshirishga yo‘naltiruvchi muhim vositalardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiy ta’lim maqsadlari bilan bog‘liq holda uning aniq vazifalarini tushunamiz. Axborotlashuvning inson hayotidagi o‘rni oshgan hozirgi paytda ijtimoiy va maktab pedagogikasi roli qanchalik paradoksal ko‘rinmasin, ta’limni insonparvarlashtirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Binobarin, adabiyot eng insonparvar fanlardan biridir. Bu borada taniqli adib Nazar Eshonqul o‘rinli yozganidek, “Adabiyotning bosh vazifasi haqidagi bahslar hamma davrlarda ham bo‘lgan. Sho‘ro davri adabiyotning vazifasi o‘rgatish, namuna bo‘lish, “tarbiya vositasi” deb bilgan bo‘lsa, bu sho‘rolar kashf etgan yoki adabiyotga kommunistlar yuklagan vazifa emas. Buni adabiyotning ilk asarini yozganlar kashf etgan, shuning uchun adabiyotni adab o‘rgatish deb hisoblaganlar. Adabiyot baribir bevosita ham, bilvosita ham insonni tarbiyalaydi. Uning didini, dunyoqarashini, saviyasini, insonga, millatga, dunyoga, ezgulik va yovuzlikka munosabatini tarbiyalaydi”. Amerikalik pedagog Robert Vaytxed bu haqida shunday degan edi: “Adabiyot o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bolalarda o‘qishga mehr uyg‘otishdir. Buning shartlari – yaxshi kitoblar, yaxshi dasturlar, ilhomlangan o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, albatta, adabiyotshunoslik bilan bog‘liq bilimlar ham”. Shubxasiz, hozirgi kunda maktab o‘quvchilariga adabiyot o‘qitish borasida ancha chuqur sa’y-harakatlar amalga oshirish kerak, ayniqsa, mumtoz adabiyot o‘qitish borasida. Negaki, hozirgi kunda zamonaviy axborot va texnologiyalar ta’sirida o‘quvchilarda mumtoz adabiyotga nisbatan qiziqish susaygan. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotga doir mavzularni o‘qitishda yuqorida ta’kidlanganidek, ilhomlantira oluvchi o‘qituvchilar, yaxshi dasturlar va albatta zamonaviy pedagogik innovatsiyalar kerak.

Jumladan, Husanboyeva va Niyozmetovalarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida pedagogik innovatsiyaga shunday ta’rif berilgan: “Pedagogik innovatsiya – ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish kechimiga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Shunday qilib innovatsiya jarayoni ta’lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini o‘stirishga kiritilgan yangiliklardan iborat tushunchadir”. Demak, mumtoz adabiyotga doir mavzularni, xususan, epik asarlarni o‘qitishda bir qancha zamonaviy innovatsiyalarni kiritish mumkin. Bular o‘quvchilarni mumtoz adabiyotga doir mavzularni yaxshiroq o‘qib-o‘zlashtirish va kreativ fikrlashlarida asqotadi.

Zamonaviy ta’limda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning bilim olishdagi faolligini ta’minlash, estetik did va tahliliy tafakkurni shakllantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, murakkab tuzilmali va ko‘p qatlamli badiiy matnlar, xususan, mumtoz nasr namunalarini o‘rganishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va yangicha metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi adabiy ta’limda qo‘llanilayotgan quyidagi yangi metodik yondashuvlar o‘quvchining matn bilan faol muloqotga kirishishini, asarni tahlil qilishda individual fikr bildirishini ta’minlab, adabiy-estetik dunyoqarashini shakllantiradi:

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Loyiha asosida o‘qitish (Project Based Learning – PBL) metodikasi o‘quvchilar bilimini hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga, mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Bu metod an’anaviy faktlarni yod olishdan ko‘ra, bilimlarni qo‘llash va o‘zlashtirishga urg‘u beradi. Loyihaviy o‘qitish dastlab amerikalik pedagog William Heard Kilpatrik tomonidan XX asr boshlarida ilgari surilgan bo‘lib, bu yondashuv “Markazda – o‘quvchi!” tamoyilini ilgari suradi. Ya’ni PBL jarayonida o‘quvchilar muammoli vazifalarni jamoada bajarib, yangi bilim va ko‘nikmalarni tajriba orqali egallaydilar. Bunday hamkorlikdagi ijodiy faoliyat o‘quvchilarda yangi narsalarni o‘rganishga ijobiy munosabat uyg‘otib, ularning tadqiqotchilik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Buck Institute for Education tadqiqotlari PBL (Loyihaga asoslangan

ta’lim)ni faqat mavzuni o‘zlashtirish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan strategiya sifatida tushuntiradi: “Loyihaga asoslangan ta’lim – bu sinfda o‘quvchilarni hayotiy muammolar va vazifalarni mustaqil izlanish orqali o‘rganishga jalb etadigan dinamik o‘qitish usuli bo‘lib, bunda ular chuqur bilimga ega bo‘ladilar. PBLning eng muhim yutug‘i o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining oshishi va o‘qishga ijobiy munosabatning kuchayishidir”. Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) yondashuvini epik asarlarni o‘qitishda qo‘llash o‘quvchilarning asar mazmunini chuqur o‘zlashtirishiga va voqealarni tanqidiy mushohada qilishiga zamin yaratadi. Bu jarayonda konstruktivizm nazariyasi nuqtayi nazaridan o‘quvchilar epik asarlar mazmunini o‘zlari “kashf etib”, loyiha davomida mustaqil xulosa va umumlashmalar chiqarishadi. Bu esa ularda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Xususan, umumta’lim maktablarining 9-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni, 10-sinfda o‘qish uchun tavsiya qilingan “Qutadg‘u bilig”, “Saddi Iskandariy” kabi asarlar bilan tanishgandan so‘ng “Asardan sahnagacha” deb nomlangan loyiha ishi berilishi mumkin. Kichik guruhlarga loyihani variativ tarzda bajarishlariga imkon berish maqsadga muvofiq, shunda o‘quvchilar qiziqishiga qarab topshiriqni tanlaydilar. Xususan, “Mini spektakl yaratish” (asar motivlari asosida kichik sahna ko‘rinishi tayyorlash), “Grafik roman (komiks) yaratish” (asar syujeti va qahramonlarini zamonaviy komiks tarzida tasvirlash), “Tarixiy blog yaratish” (asar voqealari bo‘lib o‘tgan davr va joylarni, syujetni blog formatida qayta hikoya qilish) kabi loyiha ishlari o‘quvchilarni bir asar tahliliga turli tomonlarda yondashuv asosida kirishish imkonini beradi va taqdimot jarayonida bir-birlarining ishlarini qiziqish bilan tinglaydilar.

PBL strategiyasi, ayniqsa, zamonaviy raqamli avlod bo‘lmish hozirgi o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga javob beradi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarini darsga integratsiya qilish nazariy bilimlarni singdirishda katta yordam beradi. Natijada, nazariy ma’lumotlar quruq ma’ruza shaklida emas, balki jonli interaktiv faoliyat davomida o‘zlashtiriladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, PBL asosida o‘qitish metodikasi adabiyot fanini o‘quvchilar uchun chin ma’noda hayot maktabiga aylantiradi. Asarlarni o‘rganish jarayoni faqatgina matnni tahlil qilish bilangina cheklanmay, balki o‘quvchilarning o‘z tajribasi, hissiyoti va tafakkuri bilan uyg‘unlashadi. Bunday yondashuv natijasida adabiyot darslari bolalarga nafaqat bilim beradi, balki shaxsiy rivojlanish, ijodiy tafakkur va kompetentlikni ham shakllantiradi. Bu ilmiy-metodik yondashuv bugungi ta’lim standartlariga – tanqidiy fikrlovchi, jodkor va axborotni tahlil qila oluvchi shaxslarni tarbiyalashga – to‘la mos keladi.

Epik asarlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt generatorlari asardagi voqealar rivoji, obrazlar tizimi, kompozitsiya va badiiy tasvir vositalarini qisqa muddatda aniqlab, izchil tahlil qiladi. ChatGPT, Claude, AI kabi til modellari badiiy matndagi asosiy muammo va ziddiyatlarni ajratib ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilar uchun asarni yaxlit anglash va voqealarni tushunish jarayonini yengillashtiradi. LanguageTool va Grammarly epik asarning til xususiyatlarini tahlil qilishga, badiiy vositalarning matndagi vazifasini aniqlashga yordam beradi. Perplexity AI qahramonlar xarakteri va ular orasidagi munosabatlarni o‘rganish, IBM Watson NLU yoki MonkeyLearn dasturlari hissiyot tahlili (sentiment analysis) orqali qahramonlardagi kayfiyat foizlarini ko‘rish mumkin. Olingan natijalar guruhlarga oyiha topshirig‘ini to‘g‘ri yo‘nalishda amalga oshirishlariga asos bo‘ladi.

StoryboardThat platformasi maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asar syujetini bosqichma-bosqich tasvirlash asosida vizual hikoya qilish imkoniyatini taqdim etadi. Platformada o‘quvchilar asar syujet chizig‘idagi har bir asosiy voqealarni kadr sifatida joylashtirib, hikoya sahifasini yaratadilar. Bu esa o‘quvchilarda mazmunni qayta ishlash va asosiy g‘oyani ajratib olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. StoryboardThat platformasida ishlashda guruhning har bir a’zosi uchun aniq vazifalarni belgilash mumkin: biri syujet sahnalarini tanlaydi, boshqasi dialoglarni yozadi, yana biri vizual dizayn bilan shug‘ullanadi. Bu jarayon o‘quvchilarni nafaqat tahlilga, balki rejalashtirish, o‘zaro muloqot va mas’uliyatni bo‘lishishga o‘rgatadi va ularda hamkorlikda

ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Platforma juda sodda interfeysga ega bo‘lib, unda tayyor shablonlar, fon va predmetlar mavjud. Bu o‘quvchilarga chizish yoki grafik dizayn bo‘yicha maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lmasdan ham sifatli hikoya yaratish imkonini beradi. Shuningdek, personajlarning harakatlari, yuz ifodalarini o‘zgartirish, kiyim-kechak va muhit elementlarini asar davri yoki joyiga moslash mumkinligi asar kontekstini to‘g‘ri aks ettirishga yordam beradi. Masalan, biror bir mumtoz adabiyotga oid asarlardagi davr muhitini, liboslarini va shunga o‘xshash jihatlarni tasvirlash orqali o‘quvchilarda mumtoz adabiyotga nisbatan qiziqish kuchayadi, shu barobarda esa o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari ham o‘z-o‘zidan rivojlanib boraveradi. Mazkur platformada yaratilgan komikslar onlayn saqlanadi va ulardan PDF yoki bosma holatda ham foydalanish mumkin. Bu o‘quvchilar ishini sinf oldida, maktab tadbirlarida namoyish qilish uchun qulay bo‘lib, ijodiy mehnatining natijasini vizual shaklda ko‘rish qoniqish va zavq hissini beradi.

Interaktiv yondashuv. O‘quvchilarni asarni o‘qigandan keyin uning mazmunini turli shakllarda muhokama qilishga chaqirish. Masalan, guruhlar shaklida fikr almashish, har bir o‘quvchidan asar haqidagi shaxsiy taassurotlarini so‘rash yoki asar asosida qisqacha debatlar o‘tkazish.

“O‘quvchi pasporti” texnologiyasi. “O‘quvchi pasporti” texnologiyasi – o‘quvchining o‘qigan matni bo‘yicha tahliliy, informatsion va estetik mulohazalarini yozma shaklda aks ettirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan biridir. Bu texnologiya yordamida o‘quvchi asar tarkibidagi faktlar, obrazlar, g‘oyalar, muallif pozitsiyasi haqida mustaqil mulohaza yuritadi, shaxsiy baho beradi. Ushbu texnologiya o‘quvchining matn bilan izchil ishlashini, undagi asosiy qatlamlarni chuqur anglashini ta’minlaydi. Bu yondashuv individual yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari asosida tashkil etilib, har bir o‘quvchining fikrini ifodalash, ularning tahliliy va ijodiy faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

“O‘quvchi pasporti” texnologiyasining ilmiy-metodik asoslari. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning katta qismi mumtoz adabiyot namunalarini og‘ir, tushunilishi qiyin asarlar sifatida qabul qiladi. O‘quv jarayonida badiiy asarni o‘qish ko‘pincha baho olish yoki topshiriqni bajarish vositasiga aylanib qoladi, lekin ichki ehtiyoj va estetik qoniqish manbai sifatida qaralmaydi. Bundan tashqari, matn ustida mustaqil tahlil olib borish, badiiy obrazlarni anglash, matnning estetik qatlamiga kirish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Aksariyat hollarda o‘quvchilar asarni to‘liq o‘qib chiqmasdan, qisqacha mazmun yoki tayyor rejalarga tayanadi.

Texnologiyaning tarkibi va tuzilmalari:

1. O‘qilgan matnlar ro‘yxati – asar nomi, muallifi, o‘qish sanasi.

2. Lug‘atli ishlanmalar – tushunilmagan so‘zlar va ularning izohi.

3. Badiiy vositalar – matndan aniqlangan san’at uslublari va ularning tahlili.

4. Motivatsion topshiriqlar – o‘qish joyi, sharoiti va kayfiyati haqidagi ijodiy qaydlar.

5. Baholash va rag‘bat – ota-ona va o‘qituvchi imzolari, ball tizimi, sovrinlar. “O‘quvchi pasporti” texnologiyasi o‘quvchilarni muntazam, mustaqil va maqsadli kitob o‘qishga undaydi, mumtoz nasrni o‘rganishda qiziqish uyg‘otadi hamda matn ustida tahliliy va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Texnologiyaning bosqichma-bosqich joriy qilinishi o‘quvchilarda:

- kitob o‘qishga nisbatan shaxsiy motivatsiya;
- matn bilan mustaqil ishlash;
- lug‘at boyligini oshirish;
- badiiy-estetik idrok kabi fazilatlarni mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mumtoz mavzularni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan, turli xil interaktiv platformalardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki mustaqil va kreativ fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa mumtoz adabiyot ta’limining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib qoladi.

An’anaviy yondashuv bilan cheklangan darslar o‘quvchidan faqat tayyor bilimni qabul qilishni talab etsa, zamonaviy vositalar, texnologiyalar va metodlar o‘quvchini fikrlashga, izlanishga va

oʻz munosabatini mustaqil bildirishga undaydi. Bu jarayon esa oʻquvchilarda kreativ fikrlash koʻnikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar mumtoz adabiyotni oʻquvchi uchun tushunish murakkab va yiroq boʻlgan bilim emas, balki tushunarli va qiziqarli manbaga aylantiradi. Oʻquvchi oʻz fikrini erkin bildirgan sari, mumtoz matn bilan muloqoti ham chuqurlashib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buck Institute for Education (BIE) hozirgi nomi PBLWorks – bu xalqaro miqyosda tan olingan, faqatgina Loyihaga asoslangan ta'lim (Project Based Learning, PBL) metodikasini rivojlantirishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot va metodik markazdir. – URL: https://www.pblworks.org/research
2. Kilpatrick W.H. The project method// Teachers College Record, 1918. Vol. 19, no. 4. - P. 319-335
3. Kangasharju A., Ilomäki L., Lakkala M., Toom A. Lower secondary students' poetry writing with the AI-based Poetry Machine // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2022. – Vol. 3. – Art. 100048 (7 p.). – URL: https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100048
4. Nazar Eshonqul. "Men" dan "men" gacha: adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Akademnashr, 2014.- B. 56-57
5. Norqulov Nurzod Saidmurodovich. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarida mumtoz nasr namunalarini oʻqish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025. B. 18
6. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot oʻqitish metodikasi [Mant] / oʻquv qoʻllanma: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018. B. 165
7. Yusufjonova Nazokat Nigʻmadjon qizi. Epik asarlarni oʻqitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish metodikasi. Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi. – 2025-yil, 4-son.